

Aloqa va axborotlashtirish boshqarmasining asosiy vazifalari:

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining barcha darajalari va bo'g'inlarida aholini xabardor qilish tadbirlarini tashkillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

qutqaruv va kechiktirib bo'lmaydigan avariya ishlarini olib borilishida vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalari aloqa va xabar berish tizimini tashkillashtirish;

vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda vazirlik aloqa tizimini tayyorligini tashkillashtirish va ta'minlash;

vazirlik markaziy apparati, aloqa tarmog'i va tuzilmalarini aloqa, xabar berish va axborotlashtirish vositalari bilan ta'minlashni tashkillashtirish;

vazirlik markaziy apparati va tuzilmalarida aloqa va axborotlashtirish vositalaridan foydalanish, saqlash, ta'mirlash va hisobdan chiqarish bo'yicha nazoratni tashkillashtirish;

aholini (viloyat ichki) va lokal xabar berish tizimini rekonstruksiya qilish va qurilishi nazoratini tashkillashtirish;

aloqa tarmoqlarida tezkor-texnik xizmatlarni tashkillashtirish va aloqa xavsizligini ta'minlovchi tadbirlarni amalga oshirish;

vazirlik tuzilmalarida radioelektron vositalarining ishlash nazoratini tashkillashtirish va aniqlangan qoida buzilishi bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish;

markaziy apparat va hududiy boshqarmalar harakatdagi boshqaruv punktlari bilan qomondon-shtab va maxsus-taktik o'quv mashqlarini rejalashtirish va o'tkazish;

aloqa, xabar berish va axborotlashtirish masalalari bo'yicha me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni ishlab chiqish;

aloqa vositalari orqali farmoyish, komandalar va signallarni o'z vaqtida etkazilishini ta'minlash;

aloqa buzilishini bartaraf qilish bo'yicha choralar ko'rish;

A va ABning funksiyalari:

Vazirlikda texnik ta'minotni to'g'ri tashkillashtirish, uni samarali ishlatish, foydalanishda aloqa va axborotlashtirish texnikalarini doimiy tayyorligini ta'minlash.

Markaziy apparat va tuzilmalarni aloqa va axborotlashtirish vositalari bilan ta'minlash bo'yicha kompleks choralarni amalga oshirish.

Lokal va ob'ekt xabar berish tizimi hamda aholini markazlashgan xabar berish tizimiga sifatli ekspluatatsion texnik xizmat ko'rsatish va holati nazoratini tashkillashtirish.

Mavjud radio va simli aloqadan foydalanish masalalari bo'yicha vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining barcha darajalari va bo'g'inlarida aholini xabardor qilish tadbirlarini tashkillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

Favqulodda vaziyatlar, ularning oqibatlarini bartaraf qilishda aholini muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar hamda o'quv mashqlari o'tkazilayotganda aloqani tashkillashtirish masalalarini Tashkiliy-tezkor boshqarmasi bilan hamkorlikda rejalashtirish.

Transchegaraviy favqulodda vaziyatlar xavfi paydo bo'lganda va sodir bo'lganda hududda yashovchi aholini ogohlantirish masalalari bo'yicha qo'shni davlatlar FVV aloqa xizmatlari bilan hamkorlikni tashkillashtirish.

Vazirlik markaziy apparati, hududiy va tarkibiy tuzilmalarini me'yoriy xujjatlar asosida aloqa, xabar berish va axborotlashtirish vositalari bilan ta'minlash.